



## FARG'ONA VILOYATIIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar-sentabr*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-oktabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **8647** tani tashkil etib, 2022- yil 1- sentabrga nisbatan **1201** taga kamaygan (o'sish sur'ati **87,8** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **154** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **8493** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **16 699,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **106,2** % ni tashkil etdi.

Shujumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1 429,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,7** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **15 270,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,0** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 457,3** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,4** %) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022-yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
<b>Farg'na viloyati</b>	<b>16 699,7</b>	<b>106,2</b>	<b>1 429,6</b>	<b>108,7</b>	<b>15 270,1</b>	<b>106,0</b>
<b>Shaharlar</b>						
Farg'ona	3239,3	109,0	424,1	93,4	2815,2	111,8
Qo'qon	3030,3	108,7	227,8	132,0	2802,5	107,2
Quvasoy	288,9	105,9	18,9	52,8	270,0	114,0
Marg'ilon	2469,9	108,6	54,4	122,3	2415,4	108,4
<b>Tumanlar</b>						
Oltiariq	581,6	102,8	36,5	94,7	545,1	103,4
Qo'shtepa	402,7	102,2	7,7	178,6	395,0	101,4
Bag'dod	425,3	101,7	13,5	112,4	411,8	101,4
Buvayda	730,8	106,0	20,4	82,3	710,4	106,9
Beshariq	615,7	104,1	15,5	105,9	600,1	104,0
Quva	845,0	103,2	16,9	81,8	828,1	103,8
Uchko'prik	1344,4	106,4	522,8	122,5	821,6	98,2
Rishton	467,1	102,4	16,1	104,9	451,0	102,3
So'x	177,7	100,1	2,8	105,0	175,0	100,0
Toshloq	347,4	102,4	6,6	110,2	340,8	102,2
O'zbekiston	347,4	101,0	13,8	116,1	333,6	100,5
Farg'ona	452,6	103,1	7,6	103,5	445,0	103,1
Dang'ara	387,2	102,8	11,7	105,3	375,6	102,7
Furqat	250,6	101,3	5,9	114,2	244,8	101,0
Yozyovon	295,8	101,4	6,6	90,0	289,2	101,7

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 2022-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona (**109,0** %), Qo'qon (**108,7**) va Marg'ilon (**108,6**) shaharlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.




## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-sentabr, mlrd.so‘m)



So‘nggi **6 yillikda** chakan savdo Tovar aylanmasining yuqori o‘shish sur‘ati 2022- yilda yanvar-sentabr oylarida kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **109,8 %** ni yoki **14 191,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi o‘shish sur‘ati oylar kesimida (foizda)



■ (2022-yil, 2023-yil yanvar-sentabr oylari)

2023- yilning yanvar-sentyabr oylarida o‘shish sur‘ati **106,2 %** ni tashkil qildi.



**JAMI**  
mlrd. so'm

**Jamiga nisbatan tovar aylanmasi ulushi (foizda)**

<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>16 699,7</b>	<b>100,0</b>
Farg'ona sh.	3239,3	19,4
Qo'qon	3030,3	18,1
Quvasoy	288,9	1,7
Marg'ilon	2469,9	14,8
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq t.	581,6	3,5
Qo'shtepa	402,7	2,4
Bag'dod	425,3	2,5
Buvayda	730,8	4,4
Beshariq	615,7	3,7
Quva	845,0	5,1
Uchko'prik	1344,4	8,1
Rishton	467,1	2,8
So'x	177,7	1,1
Toshloq	347,4	2,1
O'zbekiston	347,4	2,1
Farg'ona	452,6	2,7
Dang'ara	387,2	2,3
Furqat	250,6	1,5
Yozyovon	295,8	1,8

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)

**Eng yuqori hajm, % da**



**1** Farg'ona – 19,4

**2** Qo'qon – 18,1

**3** Marg'ilon – 14,8

**Eng quyi hajm, % da**



**1** So'x – 1,1

**2** Furqat – 1,5

**3** Quvasoy – 1,7

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahari **19,4 %** bilan **3 239,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, So'x tumani **1,1 %** bilan **177,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **15 270,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **6,0** % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,4** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **108,7** % ga o'sdi va **1 429,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,6** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha **So'x (98,5 %)** **Farg'ona (98,3 %)** va **Toshloq (98,1 %)** tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,6 %** ni tashkil etib, eng katta ulush **Uchko'prik tumani (38,9 %)**, **Farg'ona (13,1 %)** va **Qo'qon (7,1 %)** shaharlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Farg'na viloyati</b>	<b>4 166,2</b>	<b>104,0</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	10 212,1	103,6
Qo'qon	9 912,6	92,9
Quvasoy	2 894,6	103,6
Marg'ilon	9 947,2	106,8
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	2 579,1	100,6
Qo'shtepa	1 958,7	99,6
Bag'dod	1 851,0	99,6
Buvayda	2 998,8	103,5
Beshariq	2 565,3	102,3
Quva	3 099,7	101,4
Uchko'prik	5 641,6	106,9
Rishton	2 182,5	100,3
So'x	2 148,8	98,1
Toshloq	1 607,6	100,1
O'zbekiston	1 495,0	107,8
Farg'ona	2 069,4	105,1
Dang'ara	2 220,3	107,5
Furqat	1 998,7	99,1
Yozyovon	2 502,6	99,3

2023- yilning yanvar-sentabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 166,2** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **104,0** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona (10 212,1 mingso'm) Marg'ilon (9 947,2 ming so'm), va Qo'qon (9 912,6 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 457,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **106,4 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **873,3** mlrd. so'mni (**132,5 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **584,0** mlrd so'mni tashkil etdi (**90,3 %**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Farg'na viloyati</b>	<b>1 457,3</b>	<b>106,4</b>	<b>873,3</b>	<b>132,5</b>	<b>584,0</b>	<b>90,3</b>
<b>Shaharlar</b>						
Farg'ona	168,4	119,3	159,3	134,3	9,1	40,5
Qo'qon	161,2	100,4	85,8	93,1	75,4	110,2
Quvasoy	34,8	87,8	11,9	83,0	23,0	90,5
Marg'ilon	174,0	114,8	108,6	122,2	65,4	104,4
<b>Tumanlar</b>						
Oltiariq	36,7	57,5	16,4	50,0	20,3	65,3
Qo'shtepa	70,4	162,2	43,5	235,0	27,0	108,1
Bag'dod	48,6	59,5	24,9	58,0	23,7	61,2
Buvayda	188,7	225,9	136,6	415,7	52,1	102,8
Beshariq	171,3	132,1	95,2	158,6	76,1	109,2
Quva	108,7	149,1	76,4	242,3	32,2	78,0
Uchko'prik	40,5	95,7	9,0	82,9	31,5	100,1
Rishton	78,2	90,0	35,4	145,0	42,8	68,5
So'x	23,7	61,2	14,7	150,3	9,0	30,9
Toshloq	32,0	161,4	10,3	139,5	21,7	174,4
<b>O'zbekiston</b>	<b>28,5</b>	<b>51,5</b>	<b>14,4</b>	<b>40,3</b>	<b>14,2</b>	<b>71,7</b>
Farg'ona	27,6	39,3	15,2	31,3	12,4	57,4
Dang'ara	6,7	30,0	1,7	12,3	5,0	57,4
Furqat	1,6	25,3	1,6	25,3	-	-
Yozyovon	55,6	92,4	12,5	74,0	43,1	99,5

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **873,3** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**325,1** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>325,1</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>61,0</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>146,2</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>48,4</b>
	<b>Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari</b> (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	<b>63,0</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>18,3</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>50,4</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>22,4</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>25,8</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>15,0</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>14,0</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>83,7</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **584,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **462,1** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **110,9** mlrd. so‘mni, otlar – **6,9** mlrd. so‘mni, parrandalar – **4,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	260,6
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	108,9
	1 yoshgachah bo‘lgan yosh mollar	92,5
	Qo‘ylar	108,0
	Otlar	6,9
	Echkilar	3,0
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,4
	Tovuqlar	2,1
	Quyionlar	0,2
	Qushlar	0,4

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **2 012** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – oktabr holatiga nisbatan **552** taga kamaygan va **78,5 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **3** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 009** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **417,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,3 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **93,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yilning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2022- yilning mos davriga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yilning mos davriga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>417,3</b>	<b>109,3</b>	<b>28,4</b>	<b>172,4</b>	<b>388,9</b>	<b>106,4</b>
<b>Shaharlar</b>						
Farg'ona	149,4	112,7	28,4	172,4	121,0	104,3
Qo'qon	59,3	113,4	-	-	59,3	113,4
Quvasoy	19,6	107,2	-	-	19,6	107,2
Marg'ilon	55,3	110,1	-	-	55,3	110,1
<b>Tumanlar</b>						
Oltiariq	8,9	103,8	-	-	8,9	103,8
Qo'shtepa	5,5	102,3	-	-	5,5	102,3
Bag'dod	4,3	104,0	-	-	4,3	104,0
Buvayda	6,5	103,8	-	-	6,5	103,8
Beshariq	12,4	108,9	-	-	12,4	108,9
Quva	16,6	103,8	-	-	16,6	103,8
Uchko'prik	10,2	104,2	-	-	10,2	104,2
Rishton	18,0	100,5	-	-	18,0	100,5
So'x	5,4	102,9	-	-	5,4	102,9
Toshloq	14,8	109,1	-	-	14,8	109,1
<b>O'zbekiston</b>	<b>5,1</b>	<b>103,4</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>5,1</b>	<b>103,4</b>
Farg'ona	9,9	102,0	-	-	9,9	102,0
Dang'ara	8,3	102,5	-	-	8,3	102,5
Furqat	3,0	102,3	-	-	3,0	102,3
Yozyovon	4,8	105,7	-	-	4,8	105,7

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- oktabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2 920,0** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **12,5 %** ga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **1 433,9** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **166,0 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **1 486,0** mlrd. so'mni o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,5 barobar** ga ko'paydi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi



### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrg. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Farg'na viloyati</b>	<b>2 920,0</b>	<b>112,5</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	1021,8	101,4
Qo'qon	1332,0	124,9
Quvasoy	7,0	107,4
Marg'ilon	209,9	163,2
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	4,0	103,6
Qo'shtepa	5,5	105,0
Bag'dod	10,6	102,9
Buvayda	14,5	108,2
Beshariq	1,4	109,0
Quva	3,8	103,4
Uchko'prik	20,7	109,0
Rishton	3,4	102,7
So'x	6,1	312,7
Toshloq	22,1	108,0
O'zbekiston	6,2	105,4
Farg'ona	5,2	106,9
Dang'ara	101,3	106,8
Furqat	42,2	108,5
Yozyovon	102,3	63,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qo'qon (1 332,0 mlrd. so'm), Farg'ona (1 021,8 mlrd. so'm) va Marg'ilon (209,9 mlrd. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **11 397,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,9 %** ga o‘ydi.



### Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **10 802,9** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,9%** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **94,8 %** ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Bag'dad tumani (**4,1 b.**), Yozyovon (**2,0 b.**) va Dang'ara (**1,5 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4701 tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabr holatiga nisbatan 149 taga kamaygan, o'sish sur'ati 96,9 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4680 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar , mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda	Mikrofirm a va kichik korxonal ar, mlrd. so'm	2022- yil- ning mos davriga nisbatan, foizda
Farg'na viloyati	<b>11 397,9</b>	<b>108,9</b>	<b>595,1</b>	<b>166,6</b>	<b>10 802,9</b>	<b>106,9</b>
Shaharlar						
Farg'ona	2421,3	114,5	340,3	140,1	2081,0	111,2
Qo'qon	2116,4	114,6	64,1	143,6	2052,3	113,8
Quvasoy	340,7	112,8	-	-	340,7	112,8
Marg'ilon	1987,4	111,5	137,5	100,0	1849,9	103,8
Tumanlar						
Oltiariq	337,7	105,5	47,7	74,1	290,1	113,4
Qo'shtepa	148,8	104,0	-	-	148,8	104,0
Bag'dod	129,5	114,3	0,7	4,1 b	128,8	113,9
Buvayda	217,6	101,1	-	-	217,6	101,1
Beshariq	268,0	101,6	-	-	268,0	101,6
Quva	106,7	101,9	-	-	106,7	101,9
Uchko'prik	625,2	104,0	0,9	89,6	624,3	104,0
Rishton	41,1	102,7	1,0	96,4	40,1	102,9
So'x	17,6	96,2	0,6	95,2	17,0	96,2
Toshloq	1577,9	104,2	-	-	1577,9	104,2
O'zbekiston	195,6	102,2	0,6	140,7	195,0	102,1
Farg'ona	317,4	98,9	0,4	28,2	317,0	99,2
Dang'ara	315,7	95,7	0,6	1,5 b	315,1	95,6
Furqat	119,8	87,8	-	-	119,8	87,8
Yozyovon	113,6	105,4	0,7	2,0 b	112,9	105,1



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi boshqarmasi  
Tel. 71-202-80-44 (45)**